

HAYOT XAVFSIZLIGI FANIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINING O'RNI

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasida assistenti
Maxmudov Otamurod Xoshimovich

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolani mazmun-mohiyati shundan iboratki, Hozirgi kunda hayot xavfsizligini ahamiyati, Hozirgi paytda aholini yashash tarzida ko'pgina tabiiy boyliklarning va atrof-muxitni ifloslovchi tashlamalarning yo'l qo'yib bo'lmaydigan darajada sarflanishi, Dunyo siyosati va halqaro munosabatlarning roli, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotda o'zaro aloqadorlik, keng ko'lamliligi, Global muammolarni yuzaga kelishiga yordam beruvchi asosiy faktorlar va boshqa ko'plab ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ekologik, energetik, xom ashyoviy, oziq-ovqat, tabiiy ofatlar, kollaps, Inson faoliyatini intensivlashishi, demagrafik siljishlar.

KIRISH

Xavfsizlik insonning muhim ehtiyojidir. Avraam Maslou ehtiyojlar ierarxiyasida xavfsizlikni asosiy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlar o'rtasida ikkinchi darajaga qo'ygan. Qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha insoniyatning eng muhim muammolaridan biri bu hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashdir. Odamlar har doim o'zini muxofaza qilish instinkti bilan bog'liq bo'lgan xavfsizlik holatiga intilishgan.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi yangi informatsion xavflarining paydo bo'lishiga olib keladi. Olimlar kelajakka boqib, bioenergetika, robototexnika va h.k. rivojlanayotgan fanlarning tahdid va xatarlari nimaga olib kelishi mumkinligini bashorat qilmoqdalar. Ilmiy va texnologik taraqqiyot natijasida insoniyat turli xil xavf-xatarlarga duch kelmoqda, shuning uchun jamiyat doimiy ravishda hayot faoliyati xavfsizligi muammolarini hal qilishda odamlar va atrof-muhitni turli xavf va tahdidlarning ta'siridan himoya qilishga majburdirlar.

Jamiyat tan jarohatlari, aholi o'rtasida kasallik, avariya, yong'inlar, baxtsiz hodisalar, tabiiy ofatlar tufayli katta moddiy va ma'naviy yo'qotishlarga duch kelmoqda. O'limning pasayish tendentsiyasi mavjud bo'lsa-da, u yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Shunday qilib, o'rtacha dunyo miqyosida o'lim darajasi taxmin qilinadi Ushbu muammoni tubdan hal qilish - bu o'zlarining xavfsizligini boshqalarning xavfsizligidan yuqori darajada, rivojlangan ma'naviy fazilatlar, ko'nikmalar va qobiliyatlar darajasida ta'minlay oladigan xavfsiz shaklda tarbiyalashdir. Xavfsiz turdagi shaxsni shakllantirishning asosiy elementi sifatida ta'lim turadi. K. Ushinskiyning ta'kidlashicha, "ta'lim hayotimizga tahdid soladigan xavflarni kamaytiradi, qo'rquv sabablarini qisqartiradi va xavfni o'lchash va uning

oqibatlarini aniqlash imkoniyatini beradi, bu xavflarni hisobga olgan holda qo'rquvning kuchlanishini kamaytiradi".

Hozirgi paytda aholini yashash tarzida ko'pgina tabiiy boyliklarning va atrof-muxitni ifloslovchi tashlamalarning yo'l qo'yib bo'lmaydigan darajada sarflanishi natijasida Yer resurslarining hayolga kelmaydigan darajada yo'qolib ketishiga, antropogen yuklamaning keskin oshib ketishiga olib kelishi natijasidagi inson faoliyatini butun dunyo miqyosida faqatgina meyoriy, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlar bilan chegaralab qolish mumkin emas. Shuning uchun, atrof-muxitning havfsizligini ta'minlash inson, jamiyat va madaniy taraqqiyotining asosiy maqsadi bo'lib, insonlarning yangi dunyoqarashini, moddiy boyliklar tizimini, natijada, dunyo miqyosidagi sifatli va xavfsiz turdagi shaxsni shakllantirish zarurdir. Dunyo rivojlanishining muhim yo'nalishlari sifatida global energetik havfsizlik, yuqumli kasaliklar bilan kurashish va bilim olish qayd qilingan.

ASOSIY QISM

Bularning hammasi global tazyiqni, diniy va milliy ekstremizmni oldini olishga va yo'qotishga yo'naltirilgan. Bu yerda bilim olish nafaqat bilim va tarbiya jarayonlarining yig'indisi bo'lmay, ijtimoiy o'zini anglash, ahloqiy qadriyatlar va ideallarni shakllantirish tizimidan iborat. Bularning hammasi madaniyatning ajralmas elementlari hisoblanadi. Zamonaviy taraqqiyotning rivojlanishi dunyodagi muhim jarayonlarni va hodisalarni kuchayishi bilan xarakterlanadi. Eng samarali vositalardan biri bo'lib, bu soxada bilimlarni rivojlantirish va madaniyatni shakllantirish hisoblanadi.

Dunyo siyosati va halqaro munosabatlarning roli, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotda o'zaro aloqadorlik, keng ko'lamlilik va yer yuzidagi ko'plab aholining munosabatlarini o'sishi ayni vaqtda butun dunyo miqyosida obektiv shart-sharoitlarni yuzaga keltiradi. Bu muammolarni shartli ravishda ikki blokka bo'lish mumkin. Birinchi blokka insonlarning asosiy ijtimoiy munosabatlari (rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar orasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajalarining keskin farqlanishi) bilan bog'liq muammolar kiradi. 3 Ikkinchi blokka insonlarni atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlariga (ekologik, energetik, xom ashyoviy, oziq-ovqat, tabiiy ofatlar va x.k.) bog'liq muammolar kiradi.

Ushbu muammolarga quyidagi insoniyatga xarakterli xususiyatlar tegishlidir:

- bir yoki bir gurux davlatlar miqyosidan chiquvchi namoyon bo'lishlarning ko'lamlari;
- namoyon bo'lishlarni o'tkirligi;
- kompleks xarakterli, ya'ni barcha muammolar bir-biri bilan zich bog'langan;
- barcha davlatlar va xalqlarga tushunarli va dolzarb bo'luvchi umuminsoniy mohiyatlar;
- u yoki bu aspektlarda insoniyatning tarix yo'llarini oldindan aytib berish;

- butun dunyoning tirishqoqligi natijasidagina ularning yechimi mavjudligi.

XULOSA

Global muammolarni yuzaga kelishiga yordam beruvchi asosiy faktorlar quyidagilardir:

1. XX asr dunyoda xayratomuz o'zgarishlar, ko'plab ilmiy yangiliklarni amalga oshirish, prinsiplial yangi texnologiyalarni o'zlashtirish asri bo'lib, dunyo iqtisodiyotini o'sishiga shak-shubhasiz yordam berdi. Hozirgi paytda dunyodagi bir kunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning va xizmatlarning soni butun 1900 yilidagisiga tengdir.
2. XX asrda yana ulkan demagrafik siljishlar ham bo'ldi. Agar 1900 yili Yer aholisi 1,6 mlrd.ga yetgan bo'lsa, XX asr oxiriga kelib, 6 mlrd. aholi yashar edi, aholi soni 4 barobarga oshgan edi. 1990 yillarda eng katta aholini o'sishi, 90 mln. Tug'ilishi kuzatilgan, 2006 yilning fevraliga kelib, 6,5 mlrd. ga yetdi, undan 95% dan ortig'i, rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikaning aholisi tashkil etadi. Hozirgi vaqtda yer yuzidagi barcha yashashga yaroqli joylardan unumli foydalaniladi. Shu bilan birga Yer yuzining 7–8% gina dunyo aholisining $\frac{3}{4}$ qismi jamlangan bo'lib, uning $\frac{4}{5}$ qismi past tekisliklarda va dengiz sathidan 500 m balandlikda bir necha asrlardan beri o'z faoliyatini olib boradilar Shu bilan birga aholi sonining o'sishi rivojlangan davlatlarda oddiy aholini qayta ta'minlanishidan ancha pastdir.
3. Yer kurrasi aholisini o'sishi, butun dunyo hamjamiyat ining sa'i harakatiga qaramay, nochorlikning o'sishi bilan birga borayapti. Hozirgi vaqtda yer yuzidagi barcha aholining 20% nochorlikda yashamoqda. 1990–2004 yillarda nochorlik 270 mln. odamni o'limiga sabab bo'ldi, bu ko'rsatkich ikki Vatan urushidagi halok bo'lganlardan 4 barobar ko'pdir. BMT ma'lumotlarga qaraganda, qashshoqlashgan davlatlar soni 10 yil avvalgidan ko'ra 54 taga oshgan.
4. Ekologik muammo sezilarli o'tkirlashdi. Uning asl mohiyati insoniyatni mahsulot ishlab chiqarishi bilan tabiiy muxitning stabilligi orasidagi ziddiyatlarni yanada chuqurlashishi natijasida yaqqol kuzatilmoqda. Biosferaga antropogen faktorlarning o'sib borayotgan bosimi biologik resurslarni, suvlarni, yer qatlamini, atmosferani o'zini tozalash, tabiiy qayta ishlab chiqarish siklini uzilishiga olib kelishi mumkin. Bu xolat ekologik vaziyatni keskin va tezkor yomonlashuviga, ya'ni «kollaps»ni tug'diradi. Biologlar shuni qayd qilishadiki, inson faoliyati natijasida har yili dunyo 150 turdagi hayvonlarning va o'simliklarni yo'qolib ketishiga olib kelayapti. XXI asrdagi yangi asosiy ekologik xarakterdagi muammolarga parnik gazlaridan iqlimni o'zgarishi, ichimlik suvining yetishmasligi va uning ifloslanishi, o'rmonlarning yo'qolishi va cho'lga aylanishi, biologik turlarning kamayishi, aholini ko'payishi, nazoratsiz chiqindilarni o'sishi, kasalliklarni tarqalishi va x.k. kiradi. Ushbu ekologik muammolarning deyarli har biri insoniyatlarni va biosferani halokatiga sabab bo'ladi. Insonlarning faol faoliyati shunga olib keldiki, yer kurrasidagi hayotni ushlab turuvchi asosiy ekologik manbalarining uchdan ikki qismi oxirgi yarim asr davomida juda

kamayib ketdi. Uning natijasida yaqin orada insoniyatning yashash darajasi sezilarli yomonlashdi.

5. Inson faoliyatini intensivlashishi biosfera ekotizimini buzulishiga olib keladi. Quruqlikning 150 mln. Km² maydonidan inson o'z nazoratini faqat 28% o'rnatgan. Aholini keskin o'sishi natijasida yer yuzida oziq-ovqatga talab oxirgi 50 yilda 4 barobarga o'sdi. Bu xolat zich aholi joylashgan yerga nisbatan ortiqcha bosimni yuzaga keltiradi. 6. Oxirgi o'n yillikda ichimlik suvining zahirasi muammosi keskin ko'tarildi. Xatto geografik jihatdan suvi serob davlatlarda ham ichimlik suvi muammosi yaqqol ko'rindi, ishlab chiqarishda suv sarfi keskin ko'tarildi. Bunga nafaqat sanoatni keskin o'sishi, balki ishlab chiqarishni suvga extiyoji ko'paygani ham sabab bo'ldi.

7. Zamonaviy sivilizatsiyani yuzaga kelishi natijasida katta shaharlar muammosi ham paydo bo'ladi. Hozirgi paytda shaharlarda yer yuzi aholisini 47% yashasa, 1972 yili bu ko'rsatkich 32%ni tashkil qilgan edi. Extimollarga qaraganda, yaqin o'n yillik orasida shaharlarning maydoni ikki barobar o'sishi kutilmoqda, ya'ni 500 dan ortiq ulkan shaharlar paydo bo'lish ehtimoli bor. Shu bilan birga, hozirning o'zida 1,1 mlrd.dan ortiq aholi havoning ifloslanishi oqibatida yuzaga keladigan kasalliklardan jabrlanmoqda. Ifloslangan havodan har yili 3 mln. odam kasallanadi, bundan taxminan 700 mingtasi avtomobilning gazlaridan halok bo'lsa, 5 mln.dan 12 mln.gachasi esa sifatsiz ichimlik suvidan foydalanish natijasida nobud bo'lmoqda. Jinoyatlar sodir bo'lish darajasi shaharlarda qishloqlarga nisbatan 8 barobarga oshgan bo'lsa, bunga yana qashshoqlanish ham qo'shiladi. Tez o'sadigan, aholisi 750 ming kishidan ortiq bo'lgan shaharlarning 2%gina sanoati rivojlangan davlatlarda, 40% o'rtacha va 58% kambag'al davlatlarga to'g'ri keladi. Bunday shaharlarning 60% Osiyoda, 25% Afrika, 15% Lotin Amerikasi davlatlariga to'g'ri keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shermamatovich, M., Yalgashevich, K., & Narkulovich, S. (2021). The development of physical preparedness of student young people. *Psychology and Education Journal*, 58(1), 2699-2704.
2. Shermamatovich, M. M., Tursunovna, H. U., Zayniddinovich, N. I., Boltayevich, A. S., & Yalgashevich, K. S. (2021). Physical education of student youth in modern conditions. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 1589-1593.
3. Shermamatovich, M. M. (2023). Psychological Description Of Sport And Psychological Development Of Sportsmen. *Eurasian Research Bulletin*, 17, 7-9.
4. Shermamatovich, Muratov Muzaffar. "Psychological Description Of Sport And Psychological Development Of Sportsmen." *Eurasian Research Bulletin* 17 (2023): 7-9.
5. Shermamatovich, M. M., Norkulovich, S. K., & Tursunovna, H. U. (2022). PLACE AND ROLE OF PSYCHOLOGICAL AND VOLITIONAL TRAININGIN THE

TRAINING PROCESS OF STUDENTS-BOXERS. *World Bulletin of Management and Law*, 8, 141-144.

6. Shermamatovich, M. M., & Boltaevich, A. (2022). INTERACTIVE LEARNING METHODS IN THE PROCESS OF TEACHING PHYSICAL CULTURE. *World Bulletin of Management and Law*, 7, 99-100.
7. Shermamatovich, M. M., & Boltaevich, A. (2022). INTERACTIVE LEARNING METHODS IN THE PROCESS OF TEACHING PHYSICAL CULTURE. *World Bulletin of Management and Law*, 7, 99-100.
8. Shermamatovich, M. M., Zayniddinovich, N. I., Boltaevich, A. S., Norqulovich, S. Q., Muzaffarovich, S. A., & Abriyevich, E. Q. Endurance Formation in General Physical Training Students. *International Journal on Integrated Education*, 4(3), 356-359.
9. Yalgashevich, X. S., & Shermamatovich, M. M. Enhancing Athletes' Regained Performance Through Rational Nutrition. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, (1), 1-6.
10. Shermamatovich, M. M., & Latif, T. (2023). DEVELOPMENT OF SPORTS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(3), 374-377.